

ANGLIYA SIYOSIY TARIXIDA UAYT TAYLER QOZGOLONINING AHAMYATI

Nazarov Obid Rahimovich
Isroilov Nurhayot Yusup o'g'li
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Annotation. *The name "England" comes from the Old English Englalund, meaning "land of the Angles." The Angles were the largest Germanic tribe to settle in the region in the 5th and 6th centuries AD. According to some sources, the Angles originated from the Angeln peninsula, an island located on the border of present-day Denmark and northern Germany.*

Keywords. *Wat Tyler, farmers, 1381, Kent, Norfolk, London, Richard of Essex*
Annotatsiya. *The name "England" comes from the Old English Englalund, meaning "land of the Angles." The Angles were the largest Germanic tribe to settle in the region in the 5th and 6th centuries AD. According to some sources, the Angles originated from the Angeln peninsula, an island located on the border of present-day Denmark and northern Germany.*

Kalit so'zlar. *Uot Tayler, dehqonlar, 1381, Kent, Norfolk, London, Essekslik, Richard.*

Uot Tayler boshchiligidagi dehqonlar qo'zg'oloni 1381 yil, mayda Londonning shimoli-sharqidagi Esseks grafligida boshlanib, Kent, Norfolk va boshqa joylarga yoyilgan. Dehqonlar feodallarning qasr va uy-joylarini yondirib, qoramol va xo'jalik mollarini egallaganlar. Qo'zg'olonchilar ikki guruhga bo'linib, Londonga qarab kelganlar. Esseksliklar shimoldan, kentlilar janubdan shaharga yetib kelganlarida, London kambag'al aholisi tomonidan shahar darvozasi ochib qo'yilgan.

Qo'zg'olonchilar shaharni egallab, bosh sud arxivi binosidagi soliq ro'yxatlari va boshqa hujjatlarni yondirib, qirol amaldorlaridan bir nechtasini qatl qilganlar. Qo'zg'olonchilarning umumiy rahbari Uot Tayler, qirol Richard II (1377—1399 yy.) ga ikki xil talabnomani topshiradi. Biri Esseks dehqonlarining talablari yozilgan «Mayl-Endi» dasturi deb nomlangan bo'lib, to'rtta moddadan iborat bo'lgan, ya'ni krepostnoy huquqning — villanlikning bekor qilinishi, qo'zg'olonchilarni avf etish, butun mamlakatda savdo erkinligi o'rnatish, har bir akr yerga to'lanadigan ijara haqini kamaytirish¹. Umuman Mayl-End dasturi o'z mohiyati bilan antifeodal dastur bo'lgan.

Ikkinchisi Kent dehqonlarining Smitefild dasturi bo'lib, cherkov yerlarini se-kulyarizatsiya (musodara) qilish va o'sha yerlar hisobiga dehqonlarga yer berish, mamlakatda yepiskoplar sonini bitta qolganga qisqartirish, villanlikni tugatish va hamma tabaqalar o'rtasidagi farqni yo'q qilish kabi moddalardan iborat bo'lgan². Smitsfild o'zining

antifeodal mazmuni bilan Mayl-Endi programmasidan ham o'tib ketdi. Mayl-Endi programmasi ham, Smitsfild programmasi ham katta ahamiyatga ega, chunki ularda dehqonlarning turli guruhlar va shahar qambag'allarining kurashlari ifodalangan.

Qirol Esseks dehqonlari talablarini bajarishga va'da qilgach, qo'zg'olonchilarning mo'tadil tabaqalari Londondan chiqib ketganlar. Bu bilan qo'zg'olonchilar kuchi zaiflashgan. Ikkinchi kuni Uot Taylerni shahar meri qirol bilan kelishish suhbatida chog'ida Londonda hiyonatkorona o'ldirgan. So'ngra dehqonlar Londondan siqib chiqarilgan. Shundan keyin hamma grafliklardagi dehqon qo'zg'olonlari bostirilib, ulardan kattik uch olingan.¹

Angliyadagi dehqonlarning qo'zg'oloni ham o'rta asrlardagi boshqa dehqon qo'zg'olonlari kabi dehqonlarning uyushmaganligi, qo'zg'olon boshliqlarining tajribasizligi tufayli yengildi.

Qo'zg'olon yengilgan bo'lsa ham, Angliyaning keyingi taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatib, feodal asoslarini yemirdi, qishloqda tovar-pul munosabatlarining o'sishiga va dehqonlarning shaxsan ozod bo'lishlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Uot Tayler qo'zg'olonini yorituvchi manbalardan biri «Dehqon kushig'i» dir. Bu manba dehqonlarning XIII asrdagi og'ir ahvolini ta'riflaydi. Xikoya dehqonlarning o'z nomidan olib boriladi. Bu manba Yorkdagi muqaddas Mariya abbatligidagi muallifi noma'lum xronika bilan birga Uot Tayler yetakchiligidagi dehqonlar qo'zg'olonining sabablari haqidagi masalalarni yoritishda muhim hujjat hisoblanadi.²

Bir parchada aytiladi: "Men bu yerning odamlari tomonidan yerni ishlashdagi qiyinchiliklar haqidagi achchiq shikoyatlarini eshitdim... Bu odamlar endi qo'shik aytishmaydi, xazilning nimaligini eslaridan chiqazganlar. Endilikda biz faqat ishlashimiz lozim, bundan boshqa bizga hech narsa qolmadi, men g'alla o'rimidan keyin boshqoq yig'ib, tilab olgan hosilning har to'rt pennisini qirolga berib, yashashni istamayman".

Boshqa parchada aytiladi: "Bizning hosilimizni kutib turgan nonxurlar juda ko'p. Ular kambag'allarni shunday talaydilarki, bu ularga hech gap emas, dehqon ter to'kib, mehnati bilan yo'qolib ketishi kerak Uning xattoki, boshiga kiygani qalpog'i ham yo'q.. Hamma dimog'dor ritsarlar kambag'allarning mehnatiga tayanadi.

Ular shunday kambag'allarni talaydilarki (hamyonlarini) to'liq shilib oladilar, boy lordlar hech qan-day huquqsiz shunday qilishadi. Hammani ilohiy kuch oldida bo'yin egishga majbur qiladilar, hammani yolg'on bilan qo'rqitadilar, mana shunday o'zboshimchaliklar butun mamlakat buylab yoyilgan.

Qashshoq qambag'allarni to'rva-xalta osib, xassa tayanib, daydilik qilib yurishga majbur etganlar jazosiz qolaveradilar".

Uchinchi parchada aytiladi: “Mening hamma mulkimni tortib olganlar uchun men ham baribir yomon ko‘pol odam bo‘lib qolaman va butun yil davomida. nimaiki yiqqan bo‘lsam, barchasini xuddi shu xolda sarf qilishga majburman.

Ular bizni xuddi tepalikdagi it quyonni quvlagandek quvlaydilar.

Men bu tashvishlarning hammasini, o‘zimning kulbamga egalik qila boshlab xo‘jalik yurita boshlaganimdan buyen yuragimda saqlab kelmoqdaman. Qirolga soliq to‘lash uchun urug‘likka ajratib qo‘ygan donimni ham sotdim, endi mening yerim bo‘sh qoldi. Ular mening molxonamdan eng yaxshi molimni olib chiqib ketganlaridan so‘ng, o‘zimning taqdirimni o‘ylab yig‘lashga tayyorman shunday holda qashshoqlar gurilladi...

G‘am-g‘ussa, umidsizliklar hukm surgan .bunday olamda mehnat qilgandan ko‘ra o‘lib ketgan yaxshiroqdir”1.

Yana bir manba Yorkdagi muqaddas Mariya abbatligining yashirin xronikasi (XIV asr) bo‘lib, uning mazmuni quyidagilarni aks ettiradi:

Qirol Richardning qo‘zg‘olonchilarni ko‘ndirishi. Qo‘zg‘olonchilarning bu qilmishlarini qirol eshitgach, nima uchun va nima sababdan uning yerida qo‘zg‘olon ko‘targanliklarini bilish uchun troitsa bayramidan keyingi birinchi chorshanbada ular oldiga o‘z elchilarini yubordi. Ular (qo‘zg‘olonchilar) esa elchilar orqali yuborgan javoblarida qirollikka va qirolga xiyonat qilganlarni yo‘q qilish uchun, qirolni qutqarish uchun qo‘zg‘olon ko‘targanliklarini aytdilar. Qirol ikkinchi marta elchi yuborib, qirolga nisbatan hurmat uchun ulardan bu qilayotgan ishlarini to‘xtatishni, ular bilan batafsil so‘zlashishni so‘radi. Ularning istagiga muvofik barcha ishlarni qilishini, yomon ishlarni tezlik va qat’iylilik bilan to‘g‘rilashni aytdi. Jamoalar, unga nisbatan joylashgan o‘rniga qarab, elchilar orqali ular qirol bilan Blekgizda uchrashish va so‘zlashish istagi borligini bildirdilar. Qirol ular oldiga uchinchi marta o‘z elchilarini yuborib, ular orqali aytilgan joyga, ertagayok kunning birinchi yarmida yetib kelishini va ularning talab va istaklarini eshitishini bildirdi2.

Bu vaqtda qirol Vindzorda edi. U zudlik bilan Londonga jo‘nab ketdi. London meri va Londonning xurmatli kishilari unga peshvoz chiqib, uni xavfsiz joyga Londondagi Tauer saroyiga kuzatib qo‘ydilar. Bu yerga butun chekka yerlardan senorlar va butun kengash a‘zolari, ya‘ni Kenterberi arxiyepiskopi, Angliya kansleri va London yepiskopi, Klerkenvelldagi muqaddas Ioann gospitalining magistri, o‘sha vaktdagi Angliya xazinachisi va boshkalar — jami 600 ga yaqin kishi yig‘ildilar.

Iso tug‘ilgan kuni arafasida qirolni kutish uchun Kent jamoasi 50 ming kishi bo‘lib, Londondan uch mil naridagi Blekgizga keldilar va ikkita muqaddas Ge‘orgiy bayrog‘ini, 40 ta katta bo‘lmagan bayroqchalarni osib qo‘ydilar.

Esseks jamoasi esa 60 000 kishi bo‘lib, ularga yordam berish va qirolidan javob eshitish uchun daryoning narigi tomonidan keldilar. Shu paytda, chorshanbada Lon–don (Tauer)

saroyida, qirol ishlarni yo'lga qo'yishga qaror qilib, o'ziga kema tayyorlash va yo'l hozirligi ko'rish haqida buyruq beradi.

Qirol o'z kemasiga arxiyepiskopni, xazinachi va kengashning boshka a'zolarini o'tkazadi, boshka to'rtta kemaga esa uning mulozimlari o'tirib kemalar London-dan uchmil naridagi Grinvichga qarab yo'l oladi. Kent jamoasi qirol ular bilan uchrashishdan bosh tortganini bilib, unga petitsiya jo'natdilar va qirol dan Lankaster gersogining va o'n beshta yana boshqa lordlarning boshini topshirishni talab qildilar. Bu talabga qirol rozi bo'lmadi. Shundan keyin ular qirol oldiga odam yuborib, qirol dan uchrashishni iltimos qildilar. Qirol ular bilan uchrashish niyatida. ekanligini bildirdi, ammo unga kansler bilan xazinachi xalakit berganligini va agar kelgusi dushanbada Vindzorga kelishni istasalar bu xaqda anik javob olishlari mumkinligini aytdi.

Kent jamoasi «Sen kimni quvvatlaysan, qirol Richardni va sodiq jamoalarni» paroliga amal qildilar. Agar kimki bu parolni bilmasa, darhol o'limga hukm qilinib, boshi olinar edi... Qirol esa bu paytda Londonga qaytib, zudlik bilan Tauerga kirib keldi. Qo'zg'olonchilarning Londonga kirib kelishlari. Jamoalarning katta olmoni qirol bilan suzlashish uchun Tauer saroyi oldiga yaqinlashib keldilar, ammo bu uchrashuv amalga oshavermagach, ular saroyni muqaddas Yekaterina tomonidan janubga qarab qamal qildilar. Sitidagi jamoaning qolgan qismi Klerkenvelldagi muqaddas Ioann gospitaliga qarab yurdilar va yo'l bo'ylab Rojer Legetning uyiga va mulkiga, Chipsaydda boshi olingan uning xo'jalik ishlari yurituvchisining uyiga va ijaraga berilgan muqaddas Ioann uylari va mulklariga o't qo'yidilar va xashamdor gospitalga kirib keldilar.

Ko'p uylarni yong'in kamrab oldi. Ko'pgina nodir, guzal yodgorliklar yer bilan yakson qilindi. Shundan keyin ular mudhish ishlarni davom ettirish va dam olish uchun Londonga qaytib keldilar.

Bu paytda Londonga Tauer saroyidagi baland minoralardan bittasida turgan qirol o't alangasi ichida qolgan uylarni ko'rdi. U o'z xonasiga Tauerdagi barcha lordlarni chaqirdi va shunday og'ir vaziyatda nima qilish kerakligi haqida maslaxat so'radi. Ammo ularning hech biri maslahat berolmadi yoki istamadi. Qirol o'z xodimlariga tubandagi mazmunda xat tayyorlashni buyuradi: «Angliya va Fransiya qiroli Richard o'zining qadrdon jamoalarini o'z qirollari bo'lishini istaganliklari va uni juda ko'rishga orzumand bo'lganliklari uchun o'z minnatdorchiligini izxor etadi. Ularning hozirgacha qilgan barcha ishlarini, xaqorat va jinoyatlarini kechiradi va ularning har biri o'z maksadi va talablarini xat orqali qirolga bildirsinlar. Qirol esa bu talablarni o'ziga sodik lordlar va o'z kengashi bilan ko'rib chikadi. Jamoaga (tashkilot a'zolariga) va qirollikka foyda keltiradigan umumiy yo'l o'ylab chiqadi». Qirol bu xatga bar-cha kishilar oldida uz muhrini bosib, ikkita ritsar orqali

muqaddas Yekaterinaga yuboradi va bu xatni o'qishni ularga buyuradi. Jamoachilar bu xatni eshitib bo'lgach, kirolning bu gaplari quruq so'zdan iborat, u bizni laqillatadi dedilar.

Shundan keyin ular Londonga qaytib kelib Siti bo'ylab yurib, barcha qonunshunoslar, sud idorasi xodimlarini, shaxmat-taxta palatasidan bo'lgan kishilarni, umuman barcha savodxon kishilarning hammasining kallasini olinishi lozim deb buyruq beradilar.

Ertangi kun — jumada chekka viloyatlardagi jamoalar va Londondagi jamoalar nixoyatda katta kuch bo'lib, Tauer kal'asi yonida kolgan 80 000 kishidan tashkari, ya'ni 100 000 dan ortiq kishi to'plandi. Bulardan ayrimlari qirolni ko'rish va eshitish uchun Brentvud yo'lidagi Mayl-Endga bordilar.

Soat 7 larda qirol onasi va graflar hamroxlida Mayl-Endga qarab yo'lga chikdi. Uni juda ko'p ritsarlar va qurolli askarlar qo'riqlab bordilar. U bu yerga yetib kelganda, jamoa vakillari uni ko'rib tiz cho'kadilar va «Xush kelibsiz, bizning senor qirol Richard. Biz ham sizdan bo'lak boshqa qirol bo'lishni istamaymiz» dedilar. Qo'zg'olon ko'targan dehqonlarning talablari ularning yo'l boshchisi va boshlig'i Uot Tayler ham jamoa nomidan qirolga unga va qonunga xiyonat qilgan sotqinlarni o'z istaklari buyicha qo'lga olishga va sotqinlarning kirdikorlarini qonuniy jazolashlariga ruxsat berilishini iltimos qiladi. Uot va jamoa qirolga petitsiya bilan murojaat qilganda, ikkita davlat bayrog'i, bayrok va bayrokchalarni ko'tarib turdilar. hech kim bundan buyen krepostnoy bo'lmasin, feodalga qasam ichmasin, xar qanaqa senorga hech qanday soliq to'lmasin, lekin bir akr yerga to'rt pens bersin va bundan buyen hech bir odam g'ayri ixtiyoriy tarzda majburan birovga xizmat qilmasligi kerak, balki aksincha o'z ixtiyori bilan tuzilgan shartnomaga asosan xizmat qilishlari kerak degan talablarni ilgari surdilar¹.

Bu vaqtda qirol jamoani ikki kator bo'lib turishga buyuradi va ularga o'z istagini ma'lum qiladi, ya'ni ular bundan buyen endi erkindirlar, qirol ularning barcha istaklarini bajo keltiradi. Jamoalar butun Angliya buylab kezib chiqishlariga, mamlakatdagi o'zlari tutishni istagan barcha sotqinlarni tutib, "ularni sog'-salomat uning oldiga keltirishlariga ruxsat beradi va o'z navbatida qonun buyicha o'sha sotkinlarni jazolashni o'z bo'yniga oladi.

Bu yorliqqa asoslanib, Uot Tayler va boshqa bir qanchalari arxiyepiskopni qo'lga olish uchun Tauer yoniga ketdilar. qolganlari esa Mayl-Endda qoldilar.

Arxiyepiskopni va uning yonidagi boshqa kishilarni urib-surib Tauerdan xaydab chiqardilar. Tauer oldidagi tepalikda bir necha xodimni, Kenterberi arxiyepiskopining boshini tanasidan judo qildilar.

Keyin ular London ko'prigi oldiga qaytib keldilar. Ko'prikdan o'tayotgan barcha kishilarning ko'rishi uchun ko'priq ustiga arxiyepiskopning va uning yonidagi sakkiz kishining boshini osib qo'ydilar. Shu kunning o'zida 140—160 atrofida odamlarning boshi kesilgan edi. Bundan keyin ular chet elliklarning uylariga qarab yurdilar. Qo'rqinchli

shovqin-suron bilan butun kun davomida va shu kechasi ularning barcha mol-mulkklarini taladilar¹.

Keyingi kuni shanbada Siti chekka joylardagi jamoalarga qirol bilan uchrashish uchun Smitsfildga borishlari kerak deb e'lon qilish haqida buyruq beradi. Ular bunga rozi bo'ladilar va o'sha joyga boradilar. Bu paytda London meri Uilyam Uoluorsga qirol jamoalar oldiga kelish haqidagi taklifni topshirishni buyuradi.

Uot Tayler mer tomonidan Medstondan chaqirilgach, qirol oldiga zo'r ehtirom bilan, jamoadoshlarim ko'rsin deb, uncha katta bo'lmagan otga minib boradi. Boshka birovdan olgan xanjarini qo'lga ushlab, u ot-dan tushadi. Tizzasini yarim bukib, qirolning qo'lini qattiq qisib, «Og'ayni, xotirjam va xushchaqchaq bo'l, qandaydir ikki haftadan keyin jamoalar seni hozirgiga nisbatan yanada ko'proq maqtashadilar. Biz, sen bilan qadrdon do'st bo'lamiz», deydi.

Qirol Uotdan: «Nima uchun o'z joylaringizga ketishni istamayapsizlar?» ' deb so'raganda, Ubt ont ichib, u va uning jamoalari o'zlari istagan talablarni o'zida aks ettirgan yorliqni olmaguncha, hech qayoqqa jilmasliklarini aytadi. Shunda qirol bu talablar qanaqa talablar ekanligini so'raydi va u talablarga o'zining rozi bo'lishini, o'z muhrini bosishini aytadi. Shunda Uot Tayler baland ovoz bilan quyidagi talablar aks ettirilgan bandlarni o'qiydi:

Uynchester qonunidan bo'lak qonun bo'lmasin va hech qanaqa sud protsessi u qonundan tashqari deb e'lon qilinmasin, bundan buyen har qanday senor o'z mulkiga ega bo'lmasin, balki bu yerlar barcha kishilar o'rtasida adolatli taqsimlansin va faqatgina bitta senor, qirol hammaning ustidan xo'jayinlik qilsin, cherkov yerlari va mulklari monaxlar va ruhoniylar qo'lida bo'lmasin, cherkovga tushgan pullar va boyliklar barcha cherkov qavmiga oid kishilar o'rtasi-da teng bo'linsin, Angliyada yepiskoplar qo'llaridagi yerlar, mol-mulkklar ularning yashashi uchun imkon beradigan ozgina qismi qoldirilib, qolgani jamoalar o'rtasida teng taqsimlansin, Angliyada bitta ham kre-postnoy dehqon-xolop bo'lmasin, krepostnoylik butunlay yo'q qilinsin.¹

Bu talablarni qirol xotirjamlik bilan eshitdi. O'zida qirollik santalatini va huquqini saqlab qolib va bundan foydalanib, men imkoniyatim boricha va kuchim yetganicha sizlarning bu talablaringizni bajarishga xarakat qilaman, dedi va Uotga to'xtamasdan uyiga ketishini buyuradi.

Qirol gapirayotgan vaqtda uning maslahatchilaridan hech biri va hech bir lord jamoalar so'roqlariga javob berishga jazm qilmadi va buni istamadilar ham.

Uot Taylarning o'ldirilishi. Uilyam Uoluors ismli London meri Uotni bosqinchilikda va qirol huzurida o'zini betakalluf tutganlikda ayblab, qamoqqa olishga buyruq beradi. Bu buyrukdan jahli chiqqan Uot jahl bilan merning qorniga xanjar uradi. Ammo mer sovut

kiyganligi uchun xanjar uning tanasiga botmaydi va u hech qanaqa shikast ko'rmaydi. Tabiatan jasur va botir bo'lgan mer bu zarbaga javoban qilichini g'ilofidan chiqarib kuch bilan Uotning bo'yniga va yana bir kuch bilan boshiga qattiq uradi. Bu hodisani kuzatib turgan qirol xizmatkorlaridan bittasi shamshirini chiqarib Uotning qorniga ikki-uch marta uradi va uni og'ir yarador qiladi.

Og'ir yarador bo'lgan Uot otini niktab, jamoalari tomon yuradi, mening uchun qasos olinglar deb baqirib, sakson metr largacha yurib chala o'lik holda otidan yiqilib tushadi. Nima hodisa bo'lganini tushunmay turgan jamoalar o'k-yoylarini to'g'rilab, qirol va uning hamrohlari tomon ota boshlaydilar. Shu paytda qirol otini choptirib, ularning oldiga yetib keladi va muqaddas Ioann Klerkenvell kasri oldidagi maydonga borishlarini buyuradi.

Qo'zg'olonchilarning jazolanishi. Bu paytda London meri zudlik bilan Sitining yigirma to'rt kvartali tepasida turgan boshliklarga barcha kurol ko'tarishga qurbi yetadigan kishilarni qurollantirishni va tezlik bilan muqaddas Ioann maydoniga qirol huzuriga olib borishlari zarurligini topshiradi.

Bu yerga yaxshi qurollangan va yaxshi harbiy saf tortgan kvartal boshliqlar raxbarligidagi katta kuchga ega bo'lgan kishilar yetib keldilar. Ular qo'ylarni qur'aga qamaganday, jamoalarni o'rab oldilar. Kvar-tal boshliqlari otryadlarini qirol oldiga yuborgach, mer jamoachilar rahbarini butunlay yo'qotish uchun yana Smitsfildga keladi. Ammo uni u yerda topmagach, hayratga tushadi va uning qayerdaligini so'raydi, unga Uotning jamoachilar tomonidan muqaddas Varfolomey yonidagi kambag'allar uchun xizmat qiladigan gospitalga olib va Uot gospital boshlig'ining xonasida yotganligini aytadilar. Shunda mer u yerga kirib, Uotni topadi va uni Smitsfildga olib chiqishni buyuradi. Smitsfild maydonida esa uning o'rtoqlari oldida uning boshini kesishga buyuradi va shunday holda uning hayotini tugatadi.

Uotning boshini nayzaga ilib, muqaddas Ioann maydonida turgan qirol oldiga boradi. O'zlarining yo'l boshchisi Uot Taylarning shunday xaloq bo'lganini ko'rib, dovdirab qolgan jamoachilar qo'rquvga tushib, tiz chukib, baland ovoz bilan qirol dan o'z jinoyatkorona qilmishlarini avf qilishlarini so'rab yalinadilar.

Qirol saxovat bilan ularning gunohidan o'tadi va ulardan ko'pchiligi darhol uylari tomon qochib ketadilar. Shundan keyin qirol butun Angliya bo'ylab o'z kishilarini yuborib, hamma joyda jinoyatchilarni ta'kibga olish va tutib keltirish haqida buyruk beradi. Ulardan ko'pchiligi ushlanib, Londonda dorga osiladi. London Siti atrofi va boshka shaharlar bu vaqtda dorga to'lib ketdi. Nihoyat o'z fuqarolarining ko'pchiligining qoni to'kilganligini ko'rgan va yuragi achishgan qirol qolganlarini bundan keyin ular hech qachon qo'zg'olon ko'tarmasliklari sharti bilan avf qiladi. Avf yorlig'ini olish uchun ular qirolga 20 shilling to'lashlari va shu tariqa qirolni boyitishlari shart edi. Bu baxtsiz urush shu tariqa tugaydi.

Uot Tayler qo‘zg‘olonidan keyin Angliya davlatining ichki siyosatida bir qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ayniqsa mahalliy hokim va graflarning parlamentga bo‘ysunishi, o‘z karamog‘idagilarga qonuniy munosabat qilishi, soliqlar solinishi masalasida isloxotlar amalga oshirildi. Xulosa qilib aytganda, Angliyada mazkur qo‘zg‘olonlardan keyin qirol hokimiyatining cheklanishi va konstitutsion monarxiyaning rivojlanish tendensiyasi kuchayib bordi.

ANA Buyuk Britaniya - inglizcha Great Britain. Mamlakatning to‘liq nomi – Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiyaning Birlashgan Qirolligi, ingliz tilida United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland. Bu nom odatda qisqartirilib, United Kingdom – Birlashgan Qirollik deb ataladi².

Mamlakatning rasmiy nomlanishiga oid atamaning eng ilk eslatmasi Britaniya (Britannia, Brittania), er.av. 1 asrda qadimgi rim mualliflari asarlarida uchraydi va hamma Britaniya orollariga tarqaladi. Bu nom lotinchadan kelib chiqqan bo‘lib, brittlar yeri demakdir.

V asrda brittlarning bir qismi materikka ko‘chib o‘rnashadi, u yerda Kichik Britaniya (Britannia Minor, hozirgi Bretan) tashkil topadi, VI asrdan esa muomalaga unga qarshi qo‘yilgan Katta (Buyuk) Britaniya (Britannia major, Greater Britain) nomi paydo bo‘ladi. Rasman Buyuk Britaniya (Great Britain) atamasi birinchi marta 1474 yilda, Angliya qirolli Eduard IVning qizi Sesili va Shotlandiya qirolli Jeyms IIIning o‘g‘li Jeyms o‘rtalarida nikoh tuzilganida qo‘llanilgan edi. Keyinchalik bu nom 1604 yilda, qirol Jeyms VI o‘zini “Buyuk Britaniya, Fransiya va Irlandiya qirolli” deb e‘lon qilganida qo‘llanilgan edi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 47-53.
2. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). YOZUV ISLOHOTI VA DINIY MEROSGA MUNOSABAT: INGLIZ OLIMLARINING YONDASHUVI. YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(9), 28-41.
3. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O‘ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI: REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUJJATLARI TAHLILI. YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(9), 11-27.
4. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O‘ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO

‘NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 90-101.

5. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O ‘ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO ‘NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 90-101.

6. Ismoil, R., Dilshod, A., & Zilola, A. (2025). O ‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA TINCHLIKPARVARLIK TAMOYILLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI. TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 203-214.

7. Zilola, A., Ismoil, R., & Dilshod, A. (2025). MISRDAGI SUV OSTI ARXELOGIYASI TADQIQOTLARIDAN. TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 192-202.

8. Vildanovich, G. S., & Davron o‘g‘li, A. D. (2025). MARKAZIY OSIYO XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA (1992–2009): MINTAQAVIY TIZIM OSTINING SHAKLLANISHI VA EVOLYUTSIYASI. YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI, 1(2), 338-341.

9. Abdumatov, A., & Aliboyev, D. (2024). SOME CONSIDERATIONS FROM THE HISTORY OF DEFENSE FACILITIES OF CENTRAL ASIA. Ilm-fan va ta'lim, 2(4), 19.

10. Davron o‘g‘li, A. D. (2025). INSON, ONG VA BORLIQ: FALSAFIY YONDASHUV. YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 3(5), 462-467.

11. Kurambayev, B., & Freedman, E. (2020). Ethics and journalism in Central Asia: A comparative study of Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan and Uzbekistan. Journal of Media Ethics, 35(1), 31-44.

12. Хамидова, Х., & Мирзаева, Н. (2022). Хх asr boshlarida mirzachol vohasidagi agrar o‘zgarishlar (—Туркестанское сельское хозяйство jurnali asosida). Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 631-634.

13. Мирзаева, Н. Д., & Расулова, М. А. К. (2016). К вопросу о религиозном составе населения русских поселков в Голодной степи (начало XX века). Проблемы современной науки и образования, (11 (53)), 44-45.

14. Мирзаева, Н. (2011). Русские поселения Мирзачульского оазиса и их социально-экономическое положение в конце XIX–начале XX века. Каталог авторефератов, 1(1), 1-30.

15. Мирзаева, Н. Ж. (2025). XIX АСРНИНГ ОХИРИ XX АСР БОШЛАРИДА МИРЗАЧЎЛ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ ДЕҲҚОНЧИЛИК МАДАНИЯТИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИОН ЖАРАЁНЛАР. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 4(4), 58-67.

16. OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(1), 86-94.

17. Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. Bulletin of Gulistan State University, 2020(4), 45-49.

18. Назаров, О., & Қосимова, Э. (2024). ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА ТАЪЛИМ ДАРГОҲЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ОИД АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР. Talqin va tadqiqotlar, 2(3), 40.

19. Nazarov, O. R. (2020). THE ROLE OF HIPPOCRATES IN THE HISTORY OF WORLD MEDICINE. Bulletin of Gulistan State University, 2020(3), 66-64.

20. Nazarov, O. R., & Saydullayev, S. (2024). AVESTO. EZGULIK TIMSOLIDIR. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).